

SURXONDARYO VILOYATIDA KORONAVIRUS PANDEMIYASI OQIBATLARINI BARTARAF ETISH BILAN BOG'LIQ ISHLAR

Xo'janazarov Absalom Ziyadullaevich, Termiz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

РАБОТА ПО ЛИКВИДАЦИИ ПОСЛЕДСТВИЙ ПАНДЕМИИ КОРОНАВИРУСА В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Хужаназаров Абсалом Зиядуллаевич, старший преподаватель Термезского государственного педагогического института, доктор философии по истории (PhD)

WORK RELATED TO ELIMINATING THE CONSEQUENCES OF THE CORONAVIRUS PANDEMIC IN SURKHANDARYA REGION

Khujanazarov Absalam Ziyadullaevich, Senior Lecturer of the Termez State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy in History (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida koronavirus pandemiyasi sharoitida sog'liqni saqlash xodimlarining fidoiyligi va pandemiya oqibatlarining bartaraf etilishi bilan bog'liq harakatlar yoritilgan. Shuningdek, maqolada koronavirus pandemiyasi oqibatlarini bartaraf etish tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida amalga oshirilgan ayrim chora-tadbirlar hamda o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlar tahlili ham o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: koronavirus COVID-19, tibbiy xizmat, karantin markazlar, dizenfeksiyalovchi vositalar.

Abstract: This article highlights the dedication of healthcare workers in the Surkhandarya region during the coronavirus pandemic and the actions taken to eliminate the consequences of the pandemic. The article also analyzes information on some measures and changes taken to strengthen the material and technical base of medical institutions to eliminate the consequences of the coronavirus pandemic.

Key words: coronavirus COVID-19, medical services, quarantine centers, disinfectants.

Аннотация: В статье рассказывается о самоотверженности работников здравоохранения Сурхандарьинской области в период пандемии коронавируса и усилиях по ликвидации последствий пандемии. В статье также представлен анализ данных о некоторых мерах и изменениях, принятых для укрепления материально-технической базы медицинских учреждений для ликвидации последствий пандемии коронавируса.

Ключевые слова: коронавирус COVID-19, медицинские услуги, карантинные центры, дезинфицирующие средства.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Yangi O'zbekiston sharoitida inson qadri va salomatligi yo'lida amalga

oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar asosida tibbiyot tizimida ham ulkan o'zgarishlar amalga oshirildi. Aholining sog'lig'ini mustahkamlash,



<https://orcid.org/0009-0006-9711-5163>

e-mail:

xujanazarov@mail.ru

davolash-profilaktika muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash va tibbiyot xodimlarini moddiy hamda ma'naviy jihatdan rag'batlantirish, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini tashkil etadi. Bundan tashqari aholining sanitariya-epidemiologik xotirjamligini ta'minlash, karantin, o'ta xavfli va boshqa yuqumli kasalliklarning chetdan kirib kelishi, ularning aholi o'rtasida tarqalib ketishining oldini olish o'ta muhim masala hisoblanadi. Ayniqsa, aholi salomatligini muhofaza qilish yuzasidan respublikada amalga oshirilgan tadbirlar xalqaro jamoatchilik tomonidan e'tirof etildi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR (ЛІТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). O'zbekistonda mustaqillik davrida sog'liqni saqlash tizimi tarixiga doir qator ilmiy maqolalar va boshqa ishlar nashr etildi. Mazkur soha tarixchi olimlar tomonidan ham tadqiq etilib, monografiya ko'rinishidagi ilmiy ishlar nashr etildi. So'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimini o'rganishga bag'ishlangan G.E.Mo'minova[1], N.F.Rasulov[2], S.A.Djumanov[3], O.R.Ochilova[5] va A.Xujanazarov[6] kabilarning ilmiy maqolalari, monografiyalari hamda dissertatsiya ishlari diqqatga sazovordir.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'zbekiston Respublikasiga (COVID-19) koronavirus infeksiyasining kirib kelishi hisobiga karantin e'lon qilinganligi va uning viloyatda tarqalishi oldini olish, bemorlarni davolash hamda alohidatalash maqsadida viloyatda gospital, provizor, observatsiya va izolyator tizimini shakllantirish bo'yicha jami 37ta obyekt ajratildi va ularda jami 3124 o'rinnayorlandi[6]. Surxondaryo viloyatiga 2020-yilning 10-aprel holatiga ko'ra chetdan kirib kelgan hamda muloqotda bo'lgan jami 34 ming 407 nafar fuqarolar kuzatuvga olingan, ulardan 24 ming 42 nafari jumladan 20 ming 835 nafari uy karantiniga olinganlar, 3 ming 207 nafari esa statsionar sharoitida kuzatuvga olinganlar 14 kunlik kuzatuvdan so'ng hisobdan chiqarilgan [6].

2020-yil iyun oyida 10365 nafar fuqarolar kuzatuvda bo'lib, ularidan 1806 nafar statsionar sharoitda 8559 nafari uy

karantiniga olingen edi. Shu davrda viloyatda 74 nafar fuqarolardan kasallik aniqlangan bo'lib, shundan charter reysdagilar – 28 nafar, boshqa viloyat fuqarosi – 2 nafar (tranzit yuk tashuvchilar – Sirdaryo va Samarkand viloyatlari), mahalliy fuqarolar 14 nafar, (4 nafar IIB, 6 nafar tibbiyot xodimlari, 1 nafar oshxonasi ishchisi, 3 nafar tranzit yuk tashuvchilar) edi [7].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Viloyatda mazkur infeksiyaning tarqalishining oldini olish bo'yicha barcha epidemiologik tadbirlar amalga oshirilib, aholi o'rtasida keng sanitariya targ'ibot ishlari olib borildi. Guman qilingan fuqaro bilan ish yuzasidan va ishdan tashqari holatda muloqotda bo'lganlardan 700 nafardan ortiq fuqarolar alohidatalash maqsadida 245 nafari statsionar, jumladan "Surxon", "Ulug'bek" mehmonxonalarida hamda tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli yuqumli kasalliklar bo'limlarida va 448 nafari esa uy sharoitida kuzatuvga olindi.

Mazkur kasallikning tarqalishini oldini olish, kasallanganlarni davolash jarayonida ishtirok etgan tibbiyot xodimlarini ham ma'nani va ruhan rag'batlantirib borildi. Jumladan, 2020-yil avgust oyiga qadar kasallik bilan davolangan bemorlarga xizmat ko'rsatishda ishtirok etgan 3 ta guruhda jami 92 nafar tibbiyot xodimlariga 1,3 mlrd so'm mablag' to'lab berildi. Respublika Bosh vazirining topshirig'iga asosan, COVID-19 koronavirusning kirib kelishi va tarqalishining oldini olish maqsadida 4,1 mlrd so'mlik 61 turdag'i dori vositalari, 996 mln so'mlik 10 dona sun'iy nafas berish moslamasi yuqumli kasalliklar bo'limlarga yetkazib berildi[8]. Epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash hamda aholi salomatligini muhofaza qilish tadbirlari uchun vazirlilik tizimidagi maxsus tibbiy ta'minot omborxonalarda saqlanayotgan zahiralardan davolash-profilaktika muassasalariga 245 turdag'i tovar moddiy boyliklari, jumladan, 3 dona disenfeksiyalovchi avtotransport, 3 dona rentgen diagnostika apparati, 14 dona elektrik ingalyatorlar keltirildi. Karantin davrida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlami jami 809 dona rehabilitatsiya texnik vositalari bilan ta'minlanib, 239 172 043,05 ming so'm mablag' sarflandi[9].

Epidemiologik vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida karantinga olinayotgan fuqarolarni joylashtirish uchun Termiz tumanidagi "Surxon" va "Xursandoy" sanatoriylari, hamda Denov tumanidagi "Denov kardio shifo" klinikalari va "Sharq", "Ulug'bek", "Fidan" kabi mehmonxona rahbarlari o'z binolarini birinchilardan bo'lib foydalanishga bo'shatib berildi.

Respublikada pandemiya va tabiiy ofatlar tufayli iqtisodiy sohada qiyinchiliklar mavjud bo'lsa-da davlatimiz rahbari tomonidan aholi salomatligini muhofaza qilish, tibbiyot muassasalarining moddiy texnika bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, 2020-yilda Surxondaryo viloyat tibbiyot tizimida ham bir qancha ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Shu yili Investitsiya dasturi asosida sog'liqni saqlashning 21 ta tibbiyot muassasalariga 55,7 mldr so'm mablag' ajartilib, joriy yilning shu kuniga qadar 14.4 mldr so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Viloyat kardiologiya markazini zamonaviy, yuqori texnologiyali tibbiy apparaturalar bilan jihozlash bo'yicha viloyat kardiologiya markaziga 7,1 mldr so'mlik 10 turdag'i tibbiy asbob-uskunalar olib keltirildi. Natijada viloyatda Aritmologik kompleks tizimi yaratilib, yurakning murakkab aritmiyalarini xirurgik yo'l bilan davolash yo'lga qo'yildi. Bu kompleks faoliyati Respublikada birinchi bo'lib, Surxondaryo viloyatida joriy etildi. Shu bilan bir qatorda Respublikada birinchi marotaba tumanlarda bahosi 4,5 mldr so'mlik angiograf apparati va qiymati 1,5 mldr so'mlik 5 dona gemodializ apparati Denov tumanida ham o'rnatildi[6].

Aholi salomatligining muhofaza qilish borasida olib borayotgan tinimsiz harakatlar natijasida sog'liqni saqlash tizimining moddiy texnika bazasini mustahkamlash, shifoxonalarni zamonaviy yuqori texnologiyali tibbiy apparatura bilan ta'mirlash bu borada O'zbekistonda jahon andozalarga mos tibbiy apparaturalar ishlab chiqarishni tatbiq etish kabi misli ko'rilmagan o'zgarishlar amalga oshirildi. Butun dunyoni qamrab olgan COVID-19 koronavirus pandemiyasining mamlakatda tarqalishining oldini olish va zararlangan bemorlarni sog'lomlashtirish maqsadida

davlatimiz tomonidan keng qamrovli ishlar olib borildi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa tariqasida qayd etish joizki, koronavirus pandemiyasi davrida viloyat sog'liqni saqlash tizimi xodimlari ham aholining salomatligi yo'lida fidoyilarcha faoliyat yuritib, aholining salomatligini saqlash borasida hatto ajal bilan olishib yuksak jasorat va insonparvarlik namunalarini ko'rsatishdi. Pandemiya sharoitida 48 nafar oliy va o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimlari koronavirus kasalligidan vafot etishdi. Eng avvalo davlat rahbarining oqilona siyosati, hukumatning epidemiyaga qarshi kurash choralarini samarali tashkil etganligi hamda tibbiyot xodimlarining tinimsiz kasallik bilan kurashishi natijasida pandemiyaning oqibatlari ancha yumshatildi. Shuni g'urur bilan qayd etish lozimki COVID-2019 sharoitida pandemiya oqibatlarini bartaraf etish borasida amalga oshirilgan O'zbekiston tajribasiga jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va dunyoning ko'plab yetakchi davlatlari tomonidan yuksak baho berildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Мўминова Г.Э. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917–1991 йиллар). – Тошкент: Yangi nashr, 2015. –336 б; Медицина и здравоохранение Узбекистана: проблемы и последствия (1946–1990 гг.) (На примере южных областей Узбекистана).: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2000; История системы здравоохранения в Узбекистане в советский период (1917-1991 гг.).: Автореф. дис. ... докт. ист. наук. – Ташкент, 2018.
2. Расулов Н.Ф. История развития педиатрии в Узбекистане.: Автореф. дис. ... канд. мед. наук. – Ташкент, 2006.
3. Джуманов С.А. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими асосий йўналишларининг ривожланиши тарихи (1991–2015 йй.): Тарих фан. бўй. фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019.
4. Очилова О.Р. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш соҳасини ривожлантиришда халқ

- табобатининг ўрни.: Тарих фан. бўй. фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Карши, 2022.
5. Xujanazarov A.Z. O‘zbekistonda tibbiyot tizimi taraqqiyoti: natijalar va tahlillar (Surxondaryo viloyati misolida, 1991-2020 yy.). Tarix fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) ... diss. – Termiz, 2023.
 6. Surxondaryo viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi. 112-yig‘ma jild. 150-varaq.
 7. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 77-fond, 5-ro‘yxat, 122-ish, 56, 91-varaq.
 8. Surxondaryo viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi. 112-yig‘ma jild. 34-varaq.
 9. Surxondaryo viloyati hisoblash markazi ma’lumoti. 2020-2021 yy. Termiz.
 10. Хужаназаров А.З., Алламуратов Ш.А. Реформы в системе здоровья Узбекистана в последние годы //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 1 (76). – С. 19-23.
 11. Surxondaryo viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi. 115-yig‘ma jild. 32-35-varaq.
 12. Хужаназаров А.З., Алламуратов Ш.А. Система здравоохранения в Узбекистане: проблемы и реформы //Бюллетень науки и практики. – 2021. – Т. 7. – №. 2.

